

ONA TILI DARSLARIDA MATN BILAN ISHLASHNING INNOVATSION USULLARI

Nazarova Dilnavoz To'ymurodovna

*Buxoro viloyati Jondor tumani ixtisoslashtirilgan maktabnini
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ona tili darslarida matn ustida ishlash o'quvchilarda o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki va yozma savodxonlikni, keng mushohada, kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, maqolada ilmiy va she'riy matn ustida topshiriqlardan namunalar ham berilgan bo'lib, matnli topshiriqlarning o'qib, tinglab tushunib bajarilishiga alohida e'tibor qaratilgan hamda QR kodlar orqali videomatnlar shakli ham havola qilingan.

Kalit so'zlar: matn, kreativlik, ilmiy matn, she'riy matn. o'qib tushunish, tinglab tushunish

O'zbekiston yoshlarining bilimni xalqaro mezonlar talabiga muvofiq shakllantirishda bugun dunyoning ilg'or ta'lim tizimlaridan andoza olish, samarali usullarni tez va oson o'zlashtirish va qo'llash muhim masala bo'lib kelmoqda. Har qanday rivojlanayotgan davrda millat tafakkurini rivojlantiruvchi, undagi milliy mafkura, ma'naviy barkamollik, intellektual salohiyatini ko'rsatib turuvchi asosiy mezon tildir. Shuningdek, chet tillarini o'rganishda asos va tayanch ham albatta, o'z ona tilimiz sanaladi. Dunyo hamjamiyatida til o'rganish ta'lim oluvchilar oldiga 4 asosiy ko'nikmani: o'qib, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutqiy savodxonlikni talab qilib qo'yimoqda.

Bugungi kunda ona tili darslarida o'zining qator xususiyatlari: tuzilishi, mazmuni bilan bir-biridan farq qiluvchi eng kata til birligi-matnlar ustida ishlash bir paytda o'quvchilarning turli bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash, dunyoqarashini o'stirish, mushohada va tahliliy yondashishlarini rivojlantirish bilan ham ahamiyatlidir. O'quvchi matn ustida ishlar ekan turli murakkablik, qiyinchiliklarga duch kelishadi, muommoli vaziyatdan chiqish, uning yechimlarini topish yo'llarini qidirish esa qiziqarli va mushohadali, tafakkur bilan ishlashni talab qiladigan jarayondir. Matn ustida ishlash faoliyatida faqat darslikda berilganlari bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio-videolavhalar ustida ishlash ham o'quvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi tabiiy.

E'tibor qaratsak, ona tili ta'limida matn ustida ishlash usullari bag'oyat xilma-xil. Biz quyida ularning ayrimlari xususida fikr yuritamiz.

I. Matn ustida grammatik topshiriqlar bilan ishlash usuli (an'anaviy amaliyot)

1. Berilgan matndan o'rganiladigan mavzuga oid so'zlarni ajratish, ularni so'z turkumlari bo'yicha guruhlash, so'z yasovchi, o'zgartiruvchi va shakl yasovchi qo'shimchalarni ajratish, aniqlash, qiyoslash, ma'nodoshini topish yoki guruhlash.

2. Matndagi sodda gaplardan qo'shma gaplar hosil qilish va aksincha qo'shma gaplarni soddalashtirish.

3. Ajratilgan sodda va qo'shma gaplarni sintaktik tahlil qilish.

4. She'riy asarlar mazmunini nasriy yo'l bilan so'zlab berish.

5. Matndagi qo'shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash.

5. Berilgan gap morfologik yoki sintaktik tahlil qilish v.h.

II. Matnda berilgan muammoga ijodiy(kreativ) , mantiqiy mushohadalar asosida yondashuv usuli (yangilanayotgan amaliyot)

1. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ibora va tasviriy ifodalar bilan almashtirish, ularning lug'aviy ma'nosini aniqlash va sharhlash.

2. Ajratilgan so'zlarga ma'nodosh, uyadosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar topish va ularning lug'aviy ma'nosini sharhlash;

3. Ilmiy uslubdagi matnni badiiy uslubdagi matnga aylantirish;

4. Matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish;

5. Matnda berilgan ma'lumotlarni topa olish va tushunish (matnni "skan" (scanning) qila olish): matnda konkret ifodalangan ma'lumotni (raqam, nom va hokazo) qidirib topish.

6. Berilgan elektron tasvir (rasm, chizma, jadval) asosida badiiy (ilmiy, tasviriy nazmiy) matn yaratish v.h.

Quyida she'riy matn ustida ishlash orqali fikrlarimizni dalillashga harakat qilamiz.

She'riy matnlarni tahlil qilishda quyidagilar ahamiyatli hisoblanadi:



1. She'riy matnni o'qib tushunishga tayyorlash. She'riy matnni o'qib tahlil qilishdan oldin o'quvchilarni she'rning mazmun mohiyatini tushunishga tayyorlovchi , ularni fikrlashga undovchi metodik ishlar amalga oshiriladi. Bunda she'r mavzusi bilan bog'liq hikmatli so'zlar , maqollar, topishmoqlar , hikoyalar, afsona yoki rivoyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan , bu jarayonni Erkin Vohidovning "Bir nihol" she'ri tahlili misolida ko'ramiz . Dastlab o'quvchilar e'tiboriga she'rda ifodalangan mavzu, shoirning ilgari surgan g'oyasiga undovchi quyidagi savollar havola qilinadi?

✚ Qanday insonlarni yaxshi insonlar deya olasiz?

✚ Yaxshi insonlar qanday fazilatlar egasi bo'lmog'i darkor?

✚ Ezgu amal egalarini qadrlovchi qanday xalq maqollarini bilasiz?

2. She'riy matnni ifodali o'qish. Bu juda muhim jarayon bo'lib o'quvchidan diqqatni jamlashni talab qilib, O'qituvchi o'quvchilardan savollarga yetarlicha javoblarni tinglagach Erkin Vohidovning "Bir nihol" she'rini ifodali qilib aytib beradi:

Bir nihol

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,

Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,

Bu gulning nomini Go'zallik deb qo'y.

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,

Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.

Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,

Bog'ing Vatan degan nom olsin ,ey do'st!

QR kod orqali she'rning

videomatnini tinglang

Yoki she'ring audio, video variantini qo'yib beradi.

3. O'quvchilar she'zni tinglagach ularning matni qay darajada tushunganlarini quyidagi topshiriqlar asosida aniqlab olinadi.

1-topshiriq. Matnda berilgan ma'lumotlarni topa olish va tushunish (matni "skan" (scanning) qila olish): matnda konkret ifodalangan ma'lumotni (raqam, nom va hokazo) qidirib topish. o'quvchilarning matnga asoslangan holda so'z va iboralar ma'nosini qay darajada tushunganliklari aniqlandi.

Savol: Ma'nodosh so'zlar va to'g'ri jizohlarni moslashtiring

1.	Yurtdosh	a) tug'ilib o'sgan yurt, ona tuproq;
2.	Mehr	b) yosh novda yoki ko'chat;
3.	Go'zallik	c) bir umumiy hududiy birlikda yashovchi shaxs yoki shaxslarning har biri;
4.	Vatan	d) insonning shaxsga yoki narsaga bo'lgan samimiy muhabbati
5.	Nihol	e) chiroy, husn;

- A. 1-a, 2-e, 3-b, 4-e, 5-d;
- B. 1-c, 2-d, 3-e, 4-a, 5-b;
- C. 1-c, 2-b, 3-d, 4-a, 5-e;
- D. 1-a, 2-d, 3-b, 4-e, 5-c.

2-topshiriq: Matnda ishlatilgan sintaktik elementlarning (bog'lovchi vositalar, olmoshlar, modal so'zlar va hokazo) matndagi vazifasini tushunish.

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,

Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.

Savol: Berilgan parcha haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang (2ta javob to'g'ri).

- A. Sodda ot kesimli gap mavjud.
- B. Vazifadosh bog'lovchi uyushiq to'ldiruvchilarni bog'lashga xizmat qilgan .
- C. Parchada yasama shaxs oti undalma vazifasida kelgan.
- D. Fe'lga xos munosabat shakllari belgisiz qo'llangan.
- E. Gaplarda yordamchi so'zlarning har 3turiga oid birliklar mavjud.

3-topshiriq: Matnda bir yoki necha gaplarda ifodalangan ma'lumotlarni perefraza qila olish.

Savol: She'rdan anglashilgan mazmunga mos maqollarni aniqlang.

- A. O'zga yurtda shoh bo'lguncha ,
O'z yurtningda cho'pon bo'l.
- B. Bulbul chamanni sevar
Odam-vatanni
- C. Yaxshidan bog' qoladi,
Yomondan - dog'.

D. Eling senga cho'zsa qo'l,
Unga doim sodiq bo'l.

4-topshiriq: Mavzuga mos diagramma, tasvir va suratni aniqlash.

Savol: She'r matnida xalqimiz e'zozlagan qadriyatga uyg'un g'oyani ifodalovchi yodgorlik rasmini tanlang .



A.

B.

C.

D.



5-topshiriq. Ma'lumotlarni o'qing, " to'g'ri" va " noto'g'ri" ma'lumotlarni aniqlang.

Savol. She'r vatandoshlarga da'vat bilan boshlanadi.

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

Savol. Parchada gul "Mehr" deya atalgan .

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

6-topshiriq. Matn mazmuniga mos to'g'ri hukmni aniqlang

7. Nihol va gulning gurkirab yashashi uchun ...

A. Bog'da yaxshi nihollarni ko'paytirmoq kerak.

B. Bog' yonida gulzor barpo ilmoq darkor.

C. Mehr bilan sug'ormoq kerak.

D. Suv berib, bu makonni Mehr deb nomlamoq kerak.

II. Ilmiy matn ustida ishlash

Isiriq - shifobaxsh o'simlik

1 Isiriq (Peganum)- isiriqdoshlar oilasiga mansub ko'pyillik o'simliklar turkumi. Isiriq 30-70 sm bo'lib o'sadigankop yillik o'simlikdir. Poyasi bir nechta, ko'p tukli, poyasiatrofqa yoyilib o'sadi. Barglari kulrang yoki yashil. Oq, sarg'ish gullari poyada yakka-yakka o'rnashgan. Mevasisharsimon, ko'p urug'li. U erta bahordan o'sa boshlaydi.

O'simlik ildizida 3,3 % gacha, poyasida 3,57 % gacha, bargida 4,96 % va urug'ida 6,60 % gacha alkaloidlarborligi qayd qilingan bo'lib, ular yig'indisidan garmalin, garmin, peganol, dezoksipeganin kabi moddalar ajratib

olingan .Isiriq qadim zamonlardan beri sharq xalqlari medesinasida qo'llanilib kelinayotgan shifobaxsh giyoxlardan hisoblanadi. 6 turi ma'lum. O'zbekistonda 1turi (P. harmala) o'sadi. Cho'l va yarim cho'llarda, aholiyashaydigan yerlarda, ekinlar orasida va tog' yonbag'irlarida uchraydi. Tarkibida alkaloidlar (garmin,garmalin, peganin va b.), yog', bo'yoq va b. moddalarbor. Tabobatda qadimdan turli kasalliklar (tutqanoq,tomoqog'rig', zaxm)ni davolashda, siydik haydovchi,terlatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Urug'idan jun gazlama va shoyilar uchun bo'yoq olinadi.

2.Isiriqning tabobatdagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, sir emaski, bu o'simlik "tabiyat gavharlaridan" biri hisoblanadi. U tabobatda keng miqyosda ishlatiladi. O'simlikning bunday keng miqyosda ishlatilishiga sabab, uning tarkibida alkaloidlar, peganol, peganidin, garmin, garmalin, turli moylar, oshlovchi moddalarning mavjudligidir. Yuqoridagi moddalardan misol tariqasida oladigan bo'lsak, garmin asab tizimini tinchlantiradi, bosh miya yallig'lanish asorati – qaltirashni davolashda va uxlatuvchi modda (dori) sifatida ishlatilgan.

3Isiriqning quyidagi foydali xususiyatlari mavjud:

- Isiriq o'tini kuydirib biroz hidlansa bosh og'rig'i yo'qoladi;
- Isiriq urug'i qaynatmasi nafas olishi qiyinlashganda ,nafas qisishida zig'ir urug'i bilan bilan aralashtirib ichilsa yuqoridagi dardlarga da'vo bo'ladi;
- O'simlikning shirasi – katarakda ancha samara beradi;
- Isiriqning sut shirasi tibiy paxtaga shimdirilib,qichimadan qiynalgan joylarga 10 kun davomida davomida surtilsa, qichimani tuzatadi;
- Yurak faoliyatini yaxshilash maqsadida isiriq urug'i,sedana, kamfora, murch, petrushka,qora zira,za'faron teng miqdorda olinib,aralashtiriladi. Hamda asal yoki shakar qo'shilib kuniga bir mahal ichiladi;

4Abu Ali Ibn Sino isiriqni kuymich asablari shamollaganida, tizza va suyaklar qaqshab og'rganida , og'riq qoldiruvchi omil sifatida ishlatishni tavsiya etgan . U isiriqdan kuchli siydik haydovchi omil sifatida foydalangan . Isiriqning sut shirasiga 10 kun davomida shimdirilgan bir tutam paxta yoki junli mato qichima bilan og'rgan bemorlarga surtilsa, ular anchagina taskin topishi haqidagi ma'lumot ulkan ensiklopedist olim Abu RayhonBeruniyning «Kitob as-saydana fit-tibb» asarida keltirilgan.

5Isiriqning dorivor preparatlari uxlatuvchi ta'sirga ham ega.Isiriq tutuni bilan xonalarni tutatish sharq xalqlari orasida odat tusiga kirgan. Bu esa uy-joylarni dezinfeksiya qilish bilan birga xona havosini tozalaydi .



QR kod orqali video bilan tanishing!

Lug'at:Dezinfeksiya -zararsizlantirish

Matn ustida topshiriqlar

1-topshiriq.

1-savol.Matndan ajratilgan birinchi ustundagi so'zlarga ikkinchi ustundan shu so'zlarning to'g'ri izohi bo'la oladiganini aniqlang .	
1) isiriq	A) zararsizlantirish
2) garmin	B) dori-darmon , davolovchi vosita
3) dezinfeksiya	C) uxlatuvchi modda
4) preparat	D) tabiat gavhari

2 -topshiriq.

2-savol. Isiriqdan tayyorlangan qaynatma bilan og'iz chayiladigan bo'lsa , og'izbo'shlig'i va tomoqning shamollashiga barham beriladi . Berilgan gapda qo'llangan ot so'z turkumi haqida to'g'ri hukmlarni aniqlang(2 ta javob to'g'ri)

- A. Chiqish kelishigidagi ot yasama fe'lga tobelangan.
- B. "asos+shakl yasovchi+ so'z yasovchi" qolipidagi yasama ot mavjud.
- C. Gapda 4 ta yasama narsa ot mavjud.
- D. Fonetik o'zgarish lug'aviy shakl yasovchi qo'shilishidan sodir bo'lgan
- E. Gapda 4 o'rinda omoniotlar qatnashgan.

To'g'ri javob:A,B

3-topshiriq.Matnning har bir qismga sarlavha qo'ying . Ortiqcha javobni aniqlang

- A. Isiriq o'simligining dorivor xususiyatlari.
- B. O'simlikning umumiy tavsifi
- C. Bir giyohda ming foyda!
- D. Zamonaviy dorishunoslikning manbai
- E. Buyuklar bisotida tabiat tabobati

* To'g'ri javob 1-B, 2-A, 3-C, 4-E. D javob ortiqcha

3-topshiriq. Berilgan fikrlarni matn asosida to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tegishli ustunda ko'rsating

3-topshiriq. Berilgan fikrlarni matn asosida to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tegishli ustunda ko'rsating			
T R	Tushunchalar	To'g'ri (A)	Noto'g'ri(B)
1		*	

	Isiriqning urug'i eng ko'p alkaloid saqlaydigan qismi hisoblanadi		
2	Isiriqning dorivor preparatlari uxlaturvchi ta'sirga ham ega.	*	
3	Ibn Sinoning «Kitob as-saydana fit-tiSb» asarida shifobaxshligi keltirilgan.		*
4	O'simlikning sut shirasi – katarakda samara beradi		*
5	ko'p urug'li mevasi sharsimon,	*	

To'g'ri javob: 1- A, 2-A, 3-b, 4-b, 5-A

4- topshiriq. Buyuk mutafakkirlar va ularning ma'lumotlarini to'g'ri joylashtirib qisqa matn tuzing. Matnda soda, qo'shma va ko'chirma gaplarni qo'llang.



1) *Авиценна*




2) 3)




A) B)

D)



To'g'ri javob : *1-B, 2-D, 3-A

5- topshiriq. Tinglangan ma'lumotlar asosida muhokama matni tayyorlang. Matnda soda, qo'shma , olinma so'zlar imlosiga e'tibor qarating.



Ilm insoning xotirasida ko'proq tasvirlar vositasida mustahkamroq o'rnashadi. Har bir berilayotgan bilim shunday noan'anaviy ko'rgazmali qurollar orqali dalillab, isbotlab tushuntirilsa, o'quvchilarning mavzuga, darsga qolaversa, o'qtuvchiga bo'lgan ishtiyoqi kuchayaveradi. She'riyatda takroriy so'z she'r badiiyligiga putur yetkazgani kabi bir xil ko'rgazmali qurollarning bir necha darslar mobaynida takror ishlatilishi o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatiga, dars sifatiga putur yetkazadi. Shuning uchun hozirgi zamon talablariga binoan o'quvchi kashfiyotchi bo'libgina qolmay, balki shu kashfiyotning taqdiqotchisi va mustahkam iroda sohibi bo'lishi kerak. Shundagina biz, o'qituvchilar, barkamol avlod tarbiyasida ulkan yutuqlarga erisha olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шайхисламов, Н. (2020). ТРУДНОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ЗАГАДКИ ИНФИНИТИВА. Academic research in educational sciences, (3).
2. Shayxislamov, N. (2020). So'z urg'usining o'zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 13-14.
3. Shayxislamov, N. (2020). Когнитив тилшуносликда концепт: "Туй" концепти ва унинг универсал табиати. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 54-60.
4. Shayxislamov, N. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA TIL VA MADANIYATNING TALQINI. Scientific Progress, 7(1), 59-70.
5. Shayxislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics-Linguoculturology. Мировая наука, (8), 33-36.
6. Шайхисламов, Н. (2020). Укувчиларнинг нуций компетенцияларни ривожлантиришда нуткнинг илмий-назарий изохд. Science and Education, 1(5).
7. Shayxislamov, N. (2020). Problems of sociolinguistics: status of the language. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, 3, 279-281.
8. Shayxislamov, N. (2020). Cognitive Linguistics, the Symbolic and Interactive Functions of Language. Образование и наука VXXI веке, 1(6), 390-393.

9. Шайхисламов, Н. (2020). Зооним компонентли метафораларнинг антропоцентрик таъкик этишда гендер жиҳдтлар. Образование и наука в XXI веке, 1(6), 304-309.

10. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo vayechimlar,(3), 71-73